

# **Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik HISOBOT**

## **I. Umumiy ma’lumot**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari va boshqa kanallar orqali 2024-yilda hisobot davrida 47 ta murojaat kelib tushgan:

- @antikor\_dtm\_bot – 34 ta;
- [antikor@uzbmb.uz](mailto:antikor@uzbmb.uz) – 0;
- e-xat tizimi orqali – 1 ta;
- portal – 12 ta.

## **II. Ko‘rib chiqish natijalari**

Murojaatlar klassifikatsiyasi quyidagicha:

- Ma’lumot olish – 34 ta;
- E-xat tizimi orqali – 1 ta;
- Fuqaro murojaati – 12 ta.

E-xat tizimi orqali “Profi university” tomonidan murojaat kelib tushdi. Murojaatda Bilim va malakalarni baholash agentligida Manfaatlar to‘qnashuvi holati yuzaga kelgani to‘g‘risida ma’lumot keltirib o‘tilgan. Ushbu holat tegishli tartibda o‘rganilib, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligi murojaatchiga ma’lum qilinib huquqiy tushuntirish berildi.

Qolgan 12 ta murojaat Umumta’lim fanlaridan milliy sertifikat imtihonlarida IIV va Milliy gvardiya xodimlari tomonidan test sinovlariga kirishda tekshiruv jarayonlarini kuchaytirish bo‘yicha talab kelib tushdi. Test sinovlarida talabgorlani tekshirib kiritishga mas’ul bo‘lgan IIV hamda Milliy gvardiyaga tegishli tartibda xatlar chiqarildi va barcha tekshiruv jarayonlari fuqarolar murojaatidan kelib chiqib, nazoratga olindi.

## **III. Minimallashtirish choralari**

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib, korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha quyidagi choralar ko‘rildi.

- Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘tkaziladigan 3 turdagi test sinovlari to‘liq raqamlashtirildi.
- Chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikati berish test sinovlarida gapirish imtihoni (speaking) bo‘limi raqamlashtirildi.